



SPORT MAKtablari FAOLIyatini SAMARALI BOSHQARISH USULLARI VA UNING DIAGNOSTIKASI

Mansurova Gulida Xonnazarovna

Oriental Universiteti, II-bosqich magistr talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola Sport maktablarini boshqarish usullari va ulardan samarali foydalanish hamda ularni boshqaruva faoliyatida qo'llash haqida tushuntirishlar berib o'tadi.

Key words: Boshqaruv usullari, Menejment, prinsip, jismoniy madaniyat, sport qo'mitalari.

Respublika prezidenti farmonlari va hukumat qarorlarini amalga oshirishda so'nggi yillarda boshqaruvchilik yo'llari tubdan o'zgaradi va tobora takomillashadi. Ilg'or va ilmiy asoslangan hamda chetdan o'rganilgan fan, texnika, sanoat, qishloq xo'jaligi jismoniy madaniyat va boshqa sohalarda keng qo'llanilmoqda.

Davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining jamoat ishlarini boshqarishning bir qator yangi shakl va yo'llari, usullari Respublika Oliy Kengashi, Vazirlar Mahkamasi va turli vazirliklarning qarorlari yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarida aniq ko'rsatilmoqda. Bular hayotga asta-sekinlik bilan to'la singdirilmoqda.

Jismoniy madaniyat va sport maktablarini boshqarishning o'ziga xos shakli va yo'llari kun sayin boyib, to'ldirib borilmoqda.

Respublika "*Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida*" qonun qabul qilinishi, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining tuzilishi va sport tashkilotlari hamda jamiyatlarning mustaqil o'z-o'zini boshqarishga o'tishi bu jarayonlarni vujudga keltirdi.

Respublikada jismoniy madaniyat va sport maktablari ishlarini yaxshilash, uni yanada rivojlantirish, yirik sport tadbirlarini amalga oshirish, sport komplekslarini ko'rish sohalari bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan vaqtி-vaqtி bilan turli qarorlar, buyruqlar, direktiv xatlar, ko'rgazmalar chiqariladi. Bunday vazifalarni bajarishda jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitalari, madaniyat va sport ishlari vazirliklari o'zlarining quyi tashkilotlari xodimlari bilan birgalikda amalga oshiradi. Shuning bilan birgalikda bu vazifalarni bajarishda Madaniyat va sport ishlari vazirliklari kabi yuqori tashkilotlarga xabar yuborib turiladi, hisobot tuziladi.

Boshqaruv usullari - bu boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir o'tkazishning usullari, ya'ni boshqaruvchining u



boshqarayotgan ishlab chiqarish kollektiviga qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida uning faoliyati koordinatsiyasini ta'minlashdir.

Boshqaruv usullari vositasida iqtisodiy jarayonlarga va ishlab chiqarish qatnashchilariga moddiy, moliyaviy, energiya, mehnat resurslarini imkonli boricha kam sarf qilib yuqori natijalarga erishish maqsadida ta'sir etiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv usullari mukammalligi va to'g'ri shakllanganligi bilan uzviy bogliqdir.

Boshqaruv usullari boshqaruv fanida muhim o'rinni egallab, boshqaruv qonun va tamoyillari bilan uzviy bogliqdir. Mehnat jamoasiga ta'sir etish usullari orasida boshqaruv mexanizmi uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv obyektiv qonunlari talablariga muvofiq keluvchilarigina eng maqbul va maqsadga muvofiq

deb hisoblanadi. Buning mohiyati shundaki, boshqaruv usullari bozor iqtisodiyotiga mansub qonunlar tizimi bilan uzviy bogliqdir.

Usul - bu tadqiqot qilish yoki ta'sir ko'rsatish yo'lidir. Tadqiqot qilish nuktai nazaridan uslub deganda boshqaruv obyektni o'rganish jarayonida qo'llaniladigan usullar , ya'ni:

Jismoniy tarbiya va sport menejmentiga sistema (tizim)li yondoshuv.

Jismoniy tarbiya va sport menejmentiga kompleks yondoshuv.

Jismoniy tarbiya va sport menejmentiga tarkibiy yondoshuv.

Jismoniy tarbiya va sport menejmentiga integratsion yondoshuv.

Jismoniy tarbiya va sport menejmentida modellashtirish.

Jismoniy tarbiya va sport menejmentiniga iqtisodiy-matematik usullar orqali yondoshuv.

Jismoniy tarbiya va sport menejmentida kuzatishni tashkil etish.

Jismoniy tarbiya va sport menejmentida eksperimentlardan foydalanish.

Boshqarish usullari obyektiv tarzda ishiab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonidagi mavjud munosabatlardan kelib chiqadi. Funksional tizim - osti obyektlarini boshqarish usuli boshqariladigan obyektning tuzilishi bilan bog'liq bo'lib , uning tarkibidagi bo'limlami boshqarishga qo'llaniladigan o'ziga xos usullami o'z ichiga oladi. Menejment boshqaruvida ishlab chiqarishning funksional ta'mnoti asosida shakllangan tizim osti bo'limlar o'ziga xos funksiyalami bajaradi. Demak, menejment faoliyatida uning barcha kategoriyalari (qonunlar, prinsiplar, funksiyalar, texnologiyalar, tizimlar va ishlab chiqarish jarayonining funksional yo'nalishlari) har doim bir-birlari bilan bog'liq holda bo'lib, umumiy maqsadga xizmat qiladilar .



Jismoniy tarbiya va sport menejmentining boshqaruv tizimlari, tizim osti bo'limlari ham o'z faoliyatlarida mavjud barcha kategoriyalardan har doim bir-birlari bilan bog'liq holda umumiy maqsadga xizmat qiladilar.

Jismoniy madaniyat va sport maktablarini harakatini boshqarish tizimida idoraviy-tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, xo'jalik shuningdek, g'oyaviy va axloqiy ta'sir etuvchi usullar qo'llaniladi. Ular ham o'z navbatida bir necha turga bo'linadi¹.

Idoraviy tashkilotchilik uslubi. Jismoniy madaniyat harakatining barcha tarmoqlariga mansubdir.

Idoraviy-tashkiliy uslubga quyidagilar kiradi:

1. Tashkiliy-farmoyish berish.
2. Tashkiliy-birlashtirish.
3. Tashkiliy-yo'l-yo'riq ko'rsatish.
4. Tashkiliy-farmoyish texnik ta'minot. Xo'jalik va h.k.

Tashkiliy-farmoyish berish uslubiy jismoniy madaniyat harakatida vaqtincha boshqaruv tashkiloti vazifasini bajaradi. Masalan, vaqtinchalik komissiya, hakamlar jamoasi va h.k. Bunday komissiyalar sport qo'mitalarida KSJ kengashlari, quyi jamoalar, sport bazalari va boshqa tashkilotlarda tuziladi.

Komssiyalarning vazifasi zarur bo'lgan barcha ishlarni tezda amalga oshirishdan iboratdir.

Tashkiliy-instruktuv (yo'l-yo'riq berish) usuli (yo'li) jismoniy madaniyat maktablarida turli ma'lumotga ixtisosga ega bo'lgan va yoshi, ish staji jihatdan

har xil kishilarga ishlaydi. Shu tufayli ularga vaqt-vaqt bilan yuqori tashkilotlar tomonidan instruktaj berib boriladi. Bu usul barcha tarmoqlar, jamoalarda ish uslubining yagona talab asosida yuritiladi .

Tashkiliy birlashtiruvchi (koordinatsion) usuli jismoniy madaniyat va sport ishlari ko'pgina idoralar, tashkilotlar, jamoalar, turli o'quv yurtlarida olib boriladi.

Shunga qaramasdan, unga rahbarlik qilishda yagona talab birlashtiruvchi usullar asosida ish olib boriladi. Barcha sohalardagi jismoniy madaniyat harakatini bir usulda boshqarish faoliyatini bu usul izga solib turadi. Bunga sport qo'mitasi rahbarlik ishini olib boradi. Kasaba uyushmalari, yoshlar ittifoqi, "Vatanparvar" tashkilotlari, turli vazirliklar bilan kelishgan holda birgalikda faoliyatini yuritadi.

Tashkiliy - texnik ta'minot usuli.

Unda quyidagilar hal qilinadi:

1. Yangi sport asboblari, jihozlari va kiyimlarini takomillashtirish.

¹Nurmuxamedov K.I., Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, o'quv qo'llanma, T., O'zDJTI nashriyoti, 1991.



2. Zamonaliv sport bazalarini ko'rish, loyihalarni tuzish.
3. Sport mashg'ulotlarini o'tkazishda yangi texnik vositalar bilan ta'minlash.
4. Sport joyi va xizmat joylarini texnika vositalari bilan jihozlash.
5. Boshqaruv tarmoqlarini tashkiliy texnik vositalari bilan ta'minlash va undan unumli foydalanish.
6. Boshqarish tizimlarini avtomatlashtirish.

Jismoniy madaniyat harakatini boshqarishda barcha davlat va jamoat tashkilotlari yuqoridaagi usullarga to'la amal qilish bilan birgalikda o'z idoralarida barcha hujjatlarni tutish, ularni talabdagidek texnik jihatdan yuritishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акрамов Р. С верой в искренний футбол. Т.: «Янги аср авлоди», 2012.
2. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. T., 2005.
3. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. T., Abu Ali ibn Sino, 2002.
4. Ali ibn Sino, 2002. O'R 0 0 'MTV. Maktab, akademik litsey, kasbhunar kollejlariga jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash muammolari (ilmiy-nazariy anjuman to'plami). T., TDPU, 2013.
5. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. T.: Abu Ali ibn Sino. 2002.